

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

3-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 3 (5) - 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxonovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

**22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:**

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

**23.00.00- SIYOSIY FANLAR**

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR) .....	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI .....	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) .....	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI .....	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID .....	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА .....	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI .....	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR .....	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI .....	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	75-82

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI .....	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI .....	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI .....	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizulloh</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH .....	153-158
<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ .....	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR .....	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ .....	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI VAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	184-193
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI .....	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH .....	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС ПРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ .....	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI .....	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI .....	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI .....	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNINI .....	237-241
<i>Toshiboieva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI .....	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI .....	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI .....	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI .....	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI .....	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI .....	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI .....	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI .....	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	287-291
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIK LARNING SINXRON TAHLILI .....	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI .....	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafuz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR .....	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIK LARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIK DAGI TALQINI .....	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI .....	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI .....	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES .....	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC .....	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA) .....	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI .....	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STREOTYPE OCCURRENCE .....	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE" .....	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT .....	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI .....	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI .....	369-372
<b>12.00.00 - YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Hурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА .....	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ .....	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR .....	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI .....	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI .....	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI .....	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI .....	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI .....	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH .....	433-442
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI .....	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI .....	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNIIY- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH .....	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEKANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI .....	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV .....	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI .....	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI .....	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI .....	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI .....	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI .....	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH .....	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE .....	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI .....	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI .....	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI .....	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafuz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	588-593

**Received:** 16 February 2025

**Accepted:** 5 March 2025

**Published:** 20 March 2025

*Article / Original Paper*

## **FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND QUALIFICATIONS IN STUDENTS ON THE CONTENTIAL-LOGICAL STATEMENT OF THE ESSAY**

**Berdiyeva Nilufar Ibadilullayeva**

Teacher of the Department of Uzbek Language Teaching,

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: [berdiyevanilufar670@gmail.com](mailto:berdiyevanilufar670@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes the issues of forming knowledge, skills and qualifications in students on the content-logical statement of the essay. Effective methods are considered to ensure the structure, content integrity, consistency and logical coherence of the essay. Also, exercises, problem tasks and innovative approaches are proposed to develop students' written speech. This article is aimed at developing essay writing competence in the language teaching process and includes useful methodological recommendations for teachers and methodologists.

**Keywords:** essay, content integrity, logical statement, skill, competence, written speech, methodological approach, coherence of thought, student competence, innovative methods.

## **TALABALARDA INSHONING MAZMUNY- MANTIQIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH**

**Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili ta'limi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Inshoning tuzilishi, mazmuniy yaxlitligi, fikrlarning izchilligi va mantiqiy uyg'unligini ta'minlash uchun samarali metodlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, talabalarning yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar, muammoli topshiriqlar hamda innovatsion yondashuvlar taklif etiladi. Mazkur maqola til o'rgatish jarayonida insho yozish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilar va metodistlar uchun foydali metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** insho, mazmuniy yaxlitlik, mantiqiy bayon, ko'nikma, malaka, yozma nutq, metodik yondashuv, fikr izchilligi, talaba kompetensiyasi, innovatsion usullar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N70>

**Kirish.** Talabalarda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Insho yozish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni, balki ijodiy tafakkurni, tahliliy yondashuvni va mantiqiy mushohadani ham talab etadi. Shu sababli, biz inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon etilishi bo'yicha talabalarning bilim va malakalarini shakllantirish usullari, samarali pedagogik yondashuvlar hamda innovatsion metodlarini tahlil qilishni maqsad qilib qo'ydik.

Zamonaviy pedagogika ilmida yozma nutqni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Yozma nutq talabaning fikrini izchil, mantiqiy va asosli ifodalash imkoniyatini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan, insho yozish jarayoni til va adabiyot fanlari doirasida alohida o'rganilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir. Talabalar insholar orqali o'z fikrlarini mantiqiy ketma-ketlikda

bayon qilish, dalillar keltirish va xulosalar chiqarish malakasini rivojlantiradi. Bu esa ularning umumiy tafakkuri, mustaqil fikrlash qobiliyati va tanqidiy yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning inshoning mazmuniy-mantiqiy bayoniga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda bir qator metod va yondashuvlardan foydalaniladi. Jumladan, interfaol metodlar, muammoli ta'lim yondashuvi, hamkorlikda o'rganish texnologiyalari, refleksiv tahlil va ijodiy yozuv usullari shular jumlasidandir. Bu metodlar talabalarga o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalash, mavzuni tahlil qilish hamda aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Fikrimizcha, talabalarning yozma nutqini rivojlantirish va ularning inshoda fikrlarni mantiqiy ifodalash qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan yondashuvlar samarali natijalar beradi. Xususan, muayyan metodikalar asosida insholarni tahlil qilish, namunaviy insholar ustida ishlash, talabalarni erkin yozuv jarayoniga jalb etish kabi amaliy usullar orqali ularning yozuv ko'nikmalari oshib boradi. Shu bilan birga, inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishi nafaqat talabalarning o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashiga xizmat qiladi, balki ularning lingvistik va adabiy bilimlarini kengaytirish, so'z boyligini oshirish, tanqidiy fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ham yordam beradi. Shuning uchun, biz maqolamizda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon etilishiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalasi turli pedagogik yondashuvlar asosida atroflicha tahlil qildik va bu yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishdagi rolini ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqdik.

Natijada, inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishini o'rgatish orqali talabalarning nafaqat yozma nutqi rivojlanadi, balki ularning mantiqiy mushohada yuritish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va ijodiy tafakkur qilish qobiliyati ham shakllanadi. Shu sababli, mazkur mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini e'tiborga olgan holda, ushbu maqolada talabalarning inshoga doir bilim va malakalarini shakllantirish metodlari bo'yicha ilmiy-tahliliy yondashuvlar bayon etiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga oid bilim va malakalarni shakllantirish masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, Vygotskiy [1] o'z tadqiqotlarida yozma nutq rivojlanishining psixologik asoslarini tahlil qilgan bo'lib, uning nazariyasi yozish jarayoni orqali tafakkurni rivojlantirishga asoslangan. Shuningdek, Baxtinning [2] dialogik nazariyasi yozuvning muloqot jarayonidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning yozma nutqini shakllantirishda foydalaniladigan muhim nazariy asoslarni beradi.

Insho yozish bo'yicha talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlar samarali ekani bir qator tadqiqotlarda tasdiqlangan. Xususan, Dewey [3] tomonidan ilgari surilgan tajriba asosidagi ta'lim yondashuvi talabalarning mustaqil fikrlash va dalillash qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu yondashuv hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'rganishimiz davomida, talabalar insholarida mantiqiy izchillik va aniq dalillar keltirish qobiliyatini shakllantirish uchun Bloomning [4] taksonomiyasi bo'yicha fikrlash darajalarini rivojlantirish zaruriyati muhimligini sezdik. Tadqiqotlarga ko'ra, yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalari talabalarni chuqur tahlil qilish, sintez qilish va baholash qobiliyatlariga ega bo'lishiga yordam beradi.

Shuningdek, yozma nutqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi lingvistik omillar ham alohida e'tibor talab qiladi. Halliday hamda O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyevalar [5.6] til va kontekstning yozma nutq shakllanishiga ta'sirini o'rgangan bo'lib, uning tadqiqotlari yozma matnlarning mazmuniy bog'liqligi va uslubiy izchilligi borasida muhim nazariy ma'lumotlar taqdim etadi.

Umuman olganda, biz inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon etilishini rivojlantirish uchun lingvistik, pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirishimiz zarur. Ushbu tadqiqot natijalari talabalarning inshodagi fikrlar izchilligi, dalillash qobiliyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Ushbu tadqiqotda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlarini aniqlash va baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tadqiqot usullari uyg'un holda ishlatildi.

*Nazariy tahlil usul* yordamida pedagogik va lingvistik manbalar o'rganilib, inshoning mazmuniy-mantiqiy bayoni bilan bog'liq ilg'or ilmiy g'oyalar, yondashuvlar hamda pedagogik tamoyillar tahlil qilindi

*Empirik tadqiqot usulida* tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, talabalarning insho yozish bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikmalari baholandi.

*Eksperimental tadqiqot usulida* talabalarning insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metodlar sinovdan o'tkazildi.

*Statistik tahlil usulida* olingan natijalar statistik metodlar asosida qayta ishlanib, eksperimental va nazorat guruhlarida talabalarning yozuv malakalari o'zgarishi matematik usullar yordamida baholandi.

*Kontent-analiz usulida* talabalarning insholari matn tahlili asosida baholandi. Matnlarning mantiqiy izchilligi, dalillash tizimi, til va uslubiy jihatdan ifoda vositalari chuqur tahlil qilindi.

*Anketalar va suhbat usulida* tadqiqot davomida o'qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar o'tkazilib, inshoning mazmuniy-mantiqiy bayoni bo'yicha mavjud muammolar va samarali metodlar to'g'risida fikr-mulohazalar olindi.

Mazkur usullar integratsiyalashgan holda qo'llanilib, inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlar aniqlab berildi. Olingan natijalar asosida talabalarning inshodagi fikrlar izchilligi, dalillash qobiliyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalari.** Ushbu tadqiqot doirasida talabalarning inshoni mazmuniy-mantiqiy bayon qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va usullar tahlil qilindi. Olingan natijalar o'quv jarayonida mazkur jihatlarga yo'naltirilgan maxsus yondashuvlarni qo'llashning samaradorligini ko'rsatdi.

Birinchi navbatda, talabalarning inshoga oid nazariy bilimlari va ularni amalda qo'llash ko'nikmalari o'rganildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, talabalarning aksariyati insho yozishda mantiqiy izchillikka, mavzuni chuqur yoritishga va uslubiy aniq ifodalarga e'tibor qaratishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat ularning yozma nutq rivojlanish darajasi hamda lingvistik kompetensiyasiga bog'liq ekani kuzatildi. Shu sababli, maxsus

treninglar, differensial yondashuv va ijodiy topshiriqlar orqali ushbu qiyinchiliklarni yengish choralari ishlab chiqildi.

Ikkinchi jihatdan, talabalarning inshoni mazmuniy jihatdan boyitish va mantiqiy mustahkamlash borasidagi rivojlanishlari baholandi. Tadqiqot davomida tahliliy fikrlash, argumentatsiya qilish va tasviriy ifoda vositalaridan foydalanish ko'rsatkichlari kuzatildi. Tajriba-sinov darslari shuni ko'rsatdiki, talabalarga analitik tafakkur asosida yozish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida muayyan matnlar bilan ishlash, so'z boyligini kengaytirish, asosli dalillar keltirish bo'yicha mashqlar berish samarali natija beradi. Jumladan, mustaqil tahlil asosida insho yozish mashqlari orqali talabalarning mantiqiy fikrlash darajasi oshgani aniqlandi.

Uchinchidan, inshoning strukturaviy tashkil etilishiga doir kompetensiyalar baholandi. Ushbu jihat talabalarning kirish, asosiy qism va xulosa elementlarini qanday bog'lay olishlari, fikrlarini mantiqiy izchilikda ifodalash qobiliyatlari orqali o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, strukturaviy aniqlik va izchilikni ta'minlash uchun bosqichma-bosqich yo'naltirish usuli samarali ekani kuzatildi. Xususan, insho yozish jarayonida reja tuzish, muhim fikrlarni oldindan aniqlash va ularga mos dalillar tanlash kabi bosqichli yondashuv talabalarning yozma nutq kompetensiyalarini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda interfaol usullar va texnologiyalarning inshoning mazmuniy-mantiqiy sifatiga ta'siri ham o'rganildi. Eksperimental guruhlarda klaster metodi, aqliy hujum, debat va diskussiya kabi usullardan foydalanish orqali talabalarning fikrni shakllantirish va asoslash bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur metodlardan foydalangan holda o'tkazilgan mashg'ulotlar talabalarning inshoni aniq, izchil va mantiqiy bayon qilishida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Natijalarga qarab shuni aytish mumkinki, talabalarning inshoni mazmuniy-mantiqiy jihatdan aniq va ravon yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Xususan, nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy mashqlarni takomillashtirish, individual va guruhli topshiriqlarni uyg'unlashtirish hamda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda, kelgusida inshoni mantiqiy va izchil bayon qilish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalar va lingvodidaktik tadqiqotlar asosida o'quv jarayoniga yangi yondashuvlarni tatbiq etish taklif etiladi.

**Tadqiqot muhokamasi.** Talabalarda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimida muhim metodik va psixolingvistik masalalardan biri hisoblanadi. Kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat talabalarning yozma nutq madaniyatini shakllantirishga, balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan kuzatishlar va eksperimental tekshiruvlar asosida talabalarning insho yozish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar aniqlandi. Jumladan, ko'pchilik talabalar fikrlarni izchil bayon qilish, dalillash va mantiqiy bog'lanishni ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari ma'lum bo'ldi. Bu esa, bir tomondan, ularning grammatik va stilistik savodxonligi yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tanqidiy va tizimli fikrlash malakalarining yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Inshoning mazmuniy-mantiqiy asoslarini o'rgatishda integrativ yondashuv samarali natijalar beradi. Ushbu yondashuv lingvistik, psixolingvistik va metodik tamoyillar asosida shakllantiriladi. Insho yozish jarayonida talabalarning lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun avvalo ularning so'z boyligini oshirish, frazeologik birliklardan to'g'ri foydalanish, mantiqiy bog'lanish vositalarini ishlatish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil etish zarur. Shuningdek, talabalarga matnning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va ularga o'z fikrlarini aniq va izchil ifodalashga oid metodik tavsiyalar berish lozim.

Inshoning mantiqiy-mavzuli asoslarini o'rgatishda samaradorlikni oshirish uchun muhim yondashuvlardan biri – ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir. Zamonaviy o'quv muhitida vizual va interaktiv vositalardan foydalanish talabalarning tafakkurini faollashtirishga, mavzuga qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, grafik organayzerlar, klaster metodi, mental xaritalar va boshqa texnologiyalar yordamida talabalar matni tahlil qilish va tuzish qoidalarini yaxshiroq o'zlashtirishlari mumkin.

Psixolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, insho yozish jarayoni nafaqat lingvistik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga, balki individual va ijodiy tafakkurning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Insho yozish mashg'ulotlari davomida talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyati, matnga yondashuv uslublari, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy bayon etish ko'nikmalari rivojlanadi. Ushbu jarayonda o'qituvchilarning metodik yondashuvi va ta'lim uslublarini tanlashi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan eksperimental mashg'ulotlar davomida, insho yozish malakalarini shakllantirishda quyidagi bosqichma-bosqich yondashuv samarali natija beradi:

**Tayyorlov bosqichi** – mavzuni anglash, asosiy tushunchalarni tahlil qilish, so'z boyligini oshirishga doir mashqlar bajarish.

**Tuzilish bosqichi** – insho rejasini ishlab chiqish, asosiy fikrlarni tizimlashtirish, dalillar asosida bayon qilish yo'nalishini belgilash.

**Yozish bosqichi** – insho matnini mantiqiy bog'liqlikni saqlagan holda yozish, strukturani tahlil qilish va fikrlarni izchil bayon qilish.

**Tahrir va tahlil bosqichi** – yozilgan matni tekshirish, grammatik va stilistik xatolarni bartaraf etish, dalillarni kuchaytirish.

Yuqoridagi bosqichlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning inshoni mantiqiy va izchil bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bizga ma'lum bo'ldiki, ushbu yondashuvni muntazam qo'llash talabalarning nafaqat yozma nutq madaniyatini rivojlantirishga, balki mustaqil va tizimli fikrlash qobiliyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, inshoning mazmuniy-mantiqiy asoslarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish talabalarning yozma nutqini rivojlantirish, ularning fikrlash qobiliyatini oshirish va ijodiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada innovatsion yondashuvlar, lingvistik va psixolingvistik tadqiqot natijalariga asoslangan metodik uslublarni qo'llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish ta'lim jarayonida muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalarning yozma nutqini rivojlantirish va ularda mantiqiy izchillikni shakllantirish nafaqat lingvistik, balki metodik hamda psixolingvistik jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Ushbu maqolada insho yozish jarayonida talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularning

fikr ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlash hamda yozma nutq me'yorlariga rioya qilishning ahamiyati yoritildi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda berilishicha, inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishi talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish, aniq dalillar orqali o'z pozitsiyasini asoslash, matnni kompozitsion jihatdan to'g'ri tuzish va uni lingvistik normativlarga muvofiq tarzda ifodalash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida individual yondashuv, bosqichma-bosqich ta'lim tamoyillari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi lozim. Chunki insho yozish – bu faqat matn yaratish emas, balki talabaning dunyoqarashi, fikr yuritish uslubi va ijodiy salohiyatini ifodalash vositasidir.

Insho yozish ko'nikmasini rivojlantirish uchun talabalarga mavzuni tahlil qilish, asosiy g'oyani aniqlash, dalillar keltirish, ularni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish va yakuniy xulosani chiqarish kabi bosqichlarni tushuntirish zarur. Ushbu jarayonda pedagog talabalarning individual fikrlashini rag'batlantirishi, ularga mavzu bo'yicha muhokama yuritish imkoniyatini yaratishi lozim. Shu bilan birga, talabalarga nutq madaniyati, stilistik uyg'unlik va ifoda uslubini shakllantirishda aniq yo'riqnoma va metodik ko'rsatmalar berish muhim sanaladi.

Mazkur maqolada inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishini shakllantirishga oid samarali usul va yondashuvlar yoritildi. Xususan, interfaol metodlar, klaster va konsept xaritalari, asosiy fikrlarni belgilash strategiyalari hamda reflektiv yozuv usullari kabi texnikalar orqali talabalarning fikrlash jarayonini faollashtirish mumkinligi ta'kidlandi.

Inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish o'quv jarayonining muhim qismi bo'lib, bu jarayon muntazam mashq, samarali metodik yondashuvlar va ijodiy yondashuvni talab etadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida yozma nutqni rivojlantirishga e'tibor qaratish talabalarning nafaqat akademik bilimlarini, balki tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Vygotsky, L. S. *Thought and Language*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
2. Cunliffe, Ann & Helin, Jenny & Luhman, J.. (2014). *Bakhtin (1895 - 1975)*. [https://www.researchgate.net/publication/304664481\\_Bakhtin\\_1895\\_-\\_1975](https://www.researchgate.net/publication/304664481_Bakhtin_1895_-_1975)
3. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan Company. <https://philpapers.org/rec/DEWEAE-2>
4. Bloom, B. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives. Book I: Cognitive Domain*. New York: David Mckay. <https://eclass.uoa.gr/modules/document/file.php/PPP242/Benjamin%20S.%20Bloom%20-%20Taxonomy%20of%20Educational%20Objectives%2C%20Handbook%201%20Cognitive%20Domain-Addison%20Wesley%20Publishing%20Company%20%281956%29.pdf>
5. *Halliday*, Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning. London: Edward Arnold, 1978
6. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. *YOZMA ISH TURLARI: INSHO, BAYON, DIKTANT*. Toshkent. "Turon Zamin ziyo" – 2017.
7. Xasanboev J va boshq. *Pedagogika fanidan izohli lug'at*. –T.: "Fan va texnologiya". 2009.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 3 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).